

Date: 9<sup>th</sup> January-2025

## O'QITISH METODLARINING O'QUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.

Ziyada Orazbaevna Ramazonova

Qoraqalpog'iston Respublikasi

Nukus tuman kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola interaktiv o'qitish metodlarining o'quvchilar ta'limiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada interaktiv o'qitishning asosiy prinsiplari va uning samaradorligini ta'minlovchi faktorlar haqida so'z yuritiladi. Pedagoglar o'quvchilarning bilimlarini yanada mustahkamlash uchun metodlardan qanday foydalanganliklarini tahlil etadi. Maqola ta'lim tizimidagi interaktiv o'qitishning joriy etilishi va uning amaliy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadi.

**Kalit so'zlar:** interaktiv o'qitish, o'quv samaradorligi, pedagogik texnologiyalar, o'quvchilar bilan muloqot, innovatsion metodlar, o'quv jarayoni, o'quvchilarda ko'nikmalar, ta'limda kreativ yondoshuv,

Darslarni o'qitishni tashkillashtirishda pedagoglar o'quvchilarning bilim, malaka va tajribaga ega bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor berishlari kerak. Erkin fikrlash, ijodiy qarashga intiladigan imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashi lozim. O'qitish jarayonida pedagoglar tomonidan:

- har qanday metod, vosita va texnologiyadan samarali va maqsadli foydalanish;
- o'quvchilarga o'qish topshiriqlarini bajarishda o'z uslubiga ega bo'lish imkoniyatini berish;
- o'quvchilar juftlikda, guruhda va hamjihatlikda o'rganishini ta'minlash;
- darsni rejalashtirishga e'tiborini yo'lga qo'yish faqat o'qitish sifatini yaxshilab qo'ymasdan samaradorlikka erishishni ham ta'minlaydi.


Interaktiv o'qitish- o'qitish samaradorligiga erishishning eng qulay yo'li sifatida qabul qilingan o'qitish turi va shakli hisoblanadi.

Interaktiv o'qitish (inglizcha «interact», ruscha «ИНТЕРАКТИВ», «inter»- birgalikda, «act»- ishlash) o'quvchilarning bilim, konikma, malaka va aniq odab-aqloqiy xususiyatlarini o'zlashtirish yolidagi birgalikdagi harakatlarini tashkillashtirishga yunaltirilgan o'qitish ma'nosiga qarab interaktivlik xususiyatlarini o'zlashtirish yolidagi birgalikda, o'zaro hamjihatlikda ishlashga asoslangan harakatini tashkillashtirishga yunaltirilgan qobiliyatga ega ekanligidan darak beradi.

Mantiqiy jihatdan esa interaktivlik, avvalambor ijtimoiy sub'ektlarning muloqoti (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatini ifodalaydi. Talim sohasida ishlaydigan harqanday xodim yaxshi biladi, an'anaviy oqitish va suhbat (dialog) ga asoslangan va bu suhbat pastdagi o'zaro hamkorliklar sifatida tashkillashtiriladi (1- rasm). An'anaviy o'qitishga mo'ljallangan suhbat.



Date: 9<sup>th</sup> January-2025



1- rasm. An'anaviy oqitishga asoslangan suhbat.

Interaktiv oqitish samaradorligini ta'minlovchi asosiy faktorlar.


Odatda , interaktiv o'qitish texnologiyasiga asoslangan o'qitish harakatlari quyidagicha aks ettiriladi:

- individual;
- juftlik;
- guruh;
- jamoaviy.

Interaktiv o'qitish texnologiyasini qo'llash jarayonida o'quvchilar quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladilar:

- guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda o'qish;
- o'quvchilar o'rtasida o'z fikrlarini erkin ifoda etish , bilimlarini hech qanday ma'naviy to'siqlarsiz ifoda etish;
- hal qiluvchi qarorlarni qabul qilish ;
- guruh yoki jamoa bilan ma'naviy yaqinlashish;
- o'zining ichki imkoniyatlari va kuchiga ishonchini rivojlantirish;
- har xil holatlarda ishlash va qiyin vaziyatlardan chiqib keta olish ko'nikmalarini shakllantirish , fikr almashish , o'rganish , o'rganish uchun zarur bo'lgan narsalarni tanlash. Interaktiv o'qitish aniq belgilarga ega. Pastdagilar interaktiv o'qitishga xos belgilar hisoblanadi (2-rasm):

Date: 9<sup>th</sup> January-2025



(2- rasm).

Interaktiv o'qitishning asosiy belgilari. Izoh: Refleksiya (lat.). «reflexiyo» orqaga qayrilish, ifodalanish): insonning harakatlari, ularning asosini tushunib etishi nazarda tutilgan nazariy ischanlik; bilishning alohida ischanligi; shaxsiy his-tuyg'ular va hayollari manosi fikrlash orqali anglash. O'z-o'zini tahlil qilish.


Barcha o'qitish turlari kabi interaktiv o'qitish asosiy prinsiplarga ega:

- 1. Dars – maruza emas, balki jamoaning umumiy ishi.
- 2. Guruhning tajribasi pedagog tajribasidan ko'p.
- 3. O'quvchilar yosh, ijtimoiy maqomi, tajribasi jihatdan o'z-aro teng.
- 4. Har bir o'quvchi o'rganilayotgan muammo yuzasidan o'z fikrini ifodalash huquqiga ega.
- 5. Darsda o'quvchi shaxsi tanqid qilinmaydi (fikrlari tanqid qilinishi mumkin).
- 6. Bildirilgan goyalar o'quvchilarning faoliyatini boshqarmaydi, balki fikrlash uchun axborot (ma'lumot) vazifasini bajaradi.

interaktiv o'qitish quyidagi imkoniyatlarga ega:

- o'quvchilarning bilimlarni egallashiga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otadi;
- o'qitish jarayonining har bir qatnashchisini rag'batlantiradi;
- har bir o'quvchining ma'naviy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- o'quv materialini puxta o'zlashtirishi uchun qo'lay sharoit yaratadi;
- o'quvchilarga har tamonlama ta'sir ko'rsatadi;
- o'quvchilarning mavzu bo'yicha fikr va mulohazalarni shakllantiradi;
- o'quvchilarda hayotiy zarur ko'nikma, malakalarni shakllantiradi;
- o'quvchilarning hulq-atvorini ijobiy tamonga o'zgarishini ta'minlaydi.

Date: 9<sup>th</sup> January-2025



• O'qitishni tashkillashtirishga interaktiv munosabatda bo'lish uchun pedagoglar bir qancha shartlarga boysinishi zarur.

Ular: 1. Oqitish jarayoniga jamoadagi barcha o'quvchilarning to'la jalb etilishi.  
2. O'quvchilarning darsga manaviy tayyorgarligini hisobga olish.


3. O'quvchilar soni ko'p bo'lmasligi (25-30 oquvchi bilan kichik guruhlarda ishlash samarali).

4. O'quv xonasining jihozlanishi (stullar doira, archa, "jonli chiziq" kabi joylashtiriladi).

5. Topshiriqni bajarish, materiallarni prezentatsiyalash, guruh ishlanmalarini muhokama qilish uchun vaqtning aniq belgilanishi.

6. O'quvchilarning kichik guruhlarda mohirona birlashtirilishi (har bir guruhda faol qatnashishi, faol qatnashmaydigan oquvchilarning teng miqdorda bo'lishi).

Izoh: Stullar kichik va katta doira shaklida joylashtirilganda kichik doirada o'quvchilar, katta doirada ekspert guruhi joylashadi. Hozirgi paytga kelib er yuzi ta'lim tizimlarida interaktiv ta'limning quyidagi shakllarida amalga oshirilayotgani hammaga ma'lum (3-rasm):



(3-rasm)

Interaktiv o'qitishni ta'lim jarayonida faol qo'llash bu kelajagimiz bo'lgan yoshlarimizning kasb sirlarini samaradorlik, qiziqish bilan o'rganishiga va o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lib etishishiga olib keladigan yagona echim bo'lib hisoblanadi.

### 3-suvret. Interaktiv oqitiwdin tiykargi korinisleri

Bugungi kunde respublika bilimlendiriw oqiw orinlarinda interaktiv oqitiwdi sholkemlestiriwde en kop qollanilatugin texnologiyalar qollanilmaqta: 1. **1. Interaktiv metodlar:** "Keys -stadi" (yaki oqiw keysleri), "Blic soraw", "Modellestiriw", "Doretivshilik jumisi", "Koz-qaras", "Reje", "Sawbet" h.t.b.

**2. Strategiyalar:** "Aqliy hujim", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Basqishpa-basqish", "Muzjargish", "Rotaciya", "T-keste", "Qar uyindisi" h.t.b.

**3. Grafik organayzerler:** "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual keste", "Venn diagrammasi", "Insert", "Klaster", "Ne ushin?", "Qanday?" h.t.b.

Interaktiv oqitiw tikkeley interaktiv metodlar jardeminde sholkemlestiriledi.

Date: 9<sup>th</sup> January-2025



**Xulosa:** Maqolada interaktiv o'qitish metodlarining ta'lim jarayonidagi o'quvchilarga ta'siri va samaradorligi o'rganildi. Interaktiv o'qitish texnologiyalari o'quvchilarga bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish, o'z fikrlarini erkin ifoda etish va guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu metodlar o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rag'batlantiradi va ular orasida hamkorlikni ta'minlaydi. Interaktiv o'qitish, shuningdek, o'qituvchilarga o'quvchilarni samarali tarzda boshqarish, har bir o'quvchining faoliyatini kuzatish va o'quv jarayonini individual yondashuvlar orqali optimallashtirish imkoniyatini yaratadi.

Shu bilan birga, interaktiv metodlar o'qitish samaradorligini oshiradi, chunki ular o'quvchilarni darsga yanada faol jalb etish, mavzularni tushunishda erkin muloqot qilish, fikr almashish va kreativ qarorlar qabul qilishga undaydi. Bu metodlarning o'quvchilarda o'z-o'zini anglash, mas'uliyatni his qilish va o'zini ifodalash kabi muhim shaxsiy sifatlarni rivojlantirishdagi roli beqiyosdir. Shuningdek, o'quvchilar orasida jamoaviy ishni tashkil etish, turli guruhlarda samarali ishlash va murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

Umuman olganda, interaktiv o'qitish metodlari ta'lim jarayonini zamonaviy talablarga moslashtirishda, o'quvchilarning bilim va malakalarini yanada mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Ular o'quvchilarda nafaqat akademik bilimlarni, balki turli hayotiy ko'nikmalarni ham shakllantirishga yordam beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Orazbaevna, Z. (2020). Interaktiv o'qitishning samaradorligi va uning o'quvchilarga ta'siri. Nukus: Qoraqalpog'iston Respublikasi Ta'lim vazirligi.
2. Karimova, D. (2019). Innovatsion o'qitish metodlari va pedagogik texnologiyalar. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
3. Okhunov, M., & Minamatov, Y. (2021). Application of Innovative Projects in Information Systems. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 167-168.
4. Minamatov, Y. E. U. (2021). APPLICATION OF MODULAR TEACHING TECHNOLOGY IN TECHNOLOGY. *Scientific progress*, 2(8), 911-913.
5. Minamatov, Y. E. O. G. L., & Nasirdinova, M. H. Q. (2022). APPLICATION OF ICT IN EDUCATION AND TEACHING TECHNOLOGIES. *Scientific progress*, 3(4), 738-740.
6. Mamatzhonovich, O. D., Khamidovich, O. M., & Esonali o'g'li, M. Y. (2022). DIGITAL ECONOMY: ESSENCE, FEATURES AND STAGES OF DEVELOPMENT. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(04), 355-359.
7. Minamatov, Y. E. O. G. L., & Yusupova, N. M. (2022). SMART TEXNOLOGIYALARDA TA'LIM JARAYONI. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(6), 441-445.
8. Охунов, Д. М., Охунов, М. Х., & Миноматов, Ю. (2022). ЭПОХА ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ-ЭПОХА НОВЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ И ПЕРСПЕКТИВ ДЛЯ

Date: 9<sup>th</sup> January-2025

РАЗВИТИЯ БИЗНЕСА НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ КРАУДСОРСИНГА.  
International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 61-65.

9. MINAMATOV, Y. IMPORTANT ASPECTS OF CLOUD TECHNOLOGY.  
ЭКОНОМИКА, 338-341.



**International Conferences**  
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

